

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ESHQO‘ZIYEV OXUNJON OYBEK O‘G‘LI**

**SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li**

Sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish yo'llari..... 3

**Эшкузиев Охунжон Айбекович**

Пути повышения эффективности инвестиций на промышленных  
предприятиях ..... 27

**Eshquziev Oxunjon Oybek oglı**

Ways to improve investment efficiency in industrial enterprises ..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ESHQO‘ZIYEV OXUNJON OYBEK O‘G‘LI**

**SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
V2020.3.PhD/Iqt1410 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Amonboyev Mahammadsidik**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xoshimova Naima Abitovna**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xidirov Temur Qahramon o‘g‘li**

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78, faks: (99871) 239-27-23, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.E. Sindarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Ilmiy  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**T.S. Qo‘chqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishiga bo‘lgan talabning keskin ortishi korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni kiritish va ulardan samarali foydalanish yuzasidan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, 2023-yilda dunyo mamlakatlari kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2 foizga qisqardi yoki ularning hajmi 1,3 trillion dollarni tashkil etdi, rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa 7 foizga yoki ularning hajmi 867 milliard dollarga qisqardi. Bunga Ukrainada va Falastinda bo‘layotgan siyosiy ziddiyatlar, jahon bozorida oziq-ovqat va energetika resurslari narxining keskin oshishi, qarz bosimining ortib borishi kabi tendensiyalar global inqirozning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Xalqaro integratsiyalashuvning susayishi sanoat korxonalarida iqtisodiy barqarorlikning zaiflashuvi, mamlakatda investitsiya ko‘rsatkichlarida nomutanosiblikning yuzaga kelishi va iqtisodiyotning retsessiya holatiga tushishiga olib keladi. Ushbu holat mamlakat sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish, investitsiya resurslarining rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, reinvestitsiya darajasini oshirish, sanoat korxonalarini o‘rtasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan kompaniyalarda samarali investitsiya qarorlarini qabul qilishga asoslangan uslubiy tavsiyalarida xalqaro standartlarning talablari asosida sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini baholash usullarini takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilgan. Ammo sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini baholashning nazariy asoslari va ularning samaradorligini baholash uslubiyoti, sanoat korxonalarining investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari hozirga qadar o‘zining ijobili yechimini topganicha yo‘q.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas’uliyatini oshirish, mamlakatda investitsiyalarning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 250 milliard AQSh dollari, jumladan 120 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish” vazifalari qo‘yildi. Mazkur vazifalar sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashni kuchaytirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 9-yanvardagi PQ-4563-son “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini baholash bo‘yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ular qatoriga Rafael Bernardo.C.B, Xiran Cui, Benjamin Amoah, Daniel A. Lynch, Peter Galvin, Susan Helper<sup>1</sup> kabilarni kiritish mumkin.

MDH davlatlari olimlaridan Chazov L.E, Prokhorova V., Ivan Khorin hamda Aigul Tulegenova tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur iqtisodchi olimlar tomonidan korxonalarda investitsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tamoyillari, o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsa-da, korxonalarning investitsiyalari samaradorligini baholash bo‘yicha tahliliy xulosalar yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Y.Abdullayev, A.T.Ibrohimov, M.Y.Rahimov, A.V.Vahabov, Sh.X.Xojibakiyev, N.G.Muminov, A.A.Karimov, D.G‘.G‘ozibekov, N.G‘.Karimov, E.A.Akromov, N.Q.Rizayev va boshqa olimlar<sup>2</sup> ning ilmiy ishlari hamda asarlarida korxona investitsiyalari samaradorligini baholashning nazariy jihatlarini rivojlantirish masalalari keng yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlarimizdan D.G‘ozibekovning “Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari” nomli ilmiy asarida investitsiyalarning makro darajadagi mazmuni, ishlab chiqarish tizimida moliya nazariyasi va iqtisodiyotdagi o‘rnii tadqiq etilgan. Shuningdek, A.X. Xudayberdiyev, J.I.Isroilov, M.Q. Pardayev, N.H. Haydarov, F. Dodiiev, B.T. Bayxonovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda<sup>3</sup> esa, investitsiyalar samaradorligi obyekt sifatida tadqiq qilinmagan bo‘lsa-da, investitsiyalarning ilmiy jihatdan asoslanishiga qisman zamin yaratilgan. Shuningdek, “Koronavirus inqirozi” davrida iqtisodiy faollikning pasayishi ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar amalga oshirilishi lozimligini talab etmoqda.

<sup>1</sup> Rafael Bernardo.C.B Efficiency Analysis of Human Capital Investments at Micro and Large-Sized Enterprises in the Manufacturing Sector Using Data Envelopment Analysis, Universidad Anáhuac México 2024.; Benjamin Amoah, Does efficiency influence firm investment size? University of Ghana Business School 2022.; Daniel A. Lynch Investment Efficiency, Capital Allocation, and Industrial Firm Performance in the U.S. University of Wisconsin 2022.; Peter Galvin Assessing the Efficiency of Investment in Manufacturing: Evidence from Australian Firms. University of Melbourne 2023.; Susan Helper Technological Investment Efficiency and Productivity Growth in US Manufacturing Firms. Boston University 2022.

<sup>2</sup> Chazov, E. L.improving the efficiency of planning as a basis for management the investment activity of an industrial enterprise. Belarusian national technical university 2019.; V.Prokhorova Safety of industrial enterprises development: evaluation of innovative and investment component. ISSN 2071-2227, E-ISSN 2223-2362, Naukovyi Visnyk Natsionalnoho Hirnychoho Universytetu, 2019, № 5 155.; Ivan Khorin Evaluation of Investment Efficiency in Industrial Enterprises in the Context of Digital Transformation, Financial University under the Government of the Russian Federation 2020.; Aigul Tulegenova Efficiency of Investment Processes in Industrial Enterprises of Kazakhstan, L.N. Gumilyov Eurasian National University, Qozog‘iston) 2023

<sup>3</sup> Xudayberdiyev A.X. Investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent. 2005.; Isroilov J.I. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2004., - 22 b.; Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlарini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misolida): iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2003. - 29 b.; Dodiiev F.O‘. Investitsiya faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 1998. – 22 b.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928323-sonli “Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi (2022-2026-y.y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish jihatlarini o‘rganish, takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quydagilardan iborat:

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sanoat korxonalarining investitsiyalari xususidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasini tadqiq qilish;

sanoat korxonalarini investitsiyalarining samaradorligini baholash yo‘nalishlari va ularning tasnifini ilmiy asoslash;

sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan ma’lumotlar bazasini shakllantirish va doimiy monitoringini yuritish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va baholash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish asosida sanoat mahsulotlari hajmining o‘zgarish prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash yo‘llarini ishlab chiqish;

investitsiyalar aylanmasi va tarkibining o‘zaro aloqador elementlarini tizimlash asosida sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini oshirishning balans modelini ishlab chiqish;

sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni prognozlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;

sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishning uslubiy konsepsiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Jizzax viloyati sanoat korxonalarining ishlab chiqarishdagidan iqtisodiy jarayoni tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirish yo‘llarini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishda umumlashtirish, qiyosiy va tizimli tahlil, monografik, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning investitsiya loyihalari va moliyaviy resurslarini joylashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va foya darajasini ko‘tarish qobiliyatini korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlash jihatidan takomillashtirilgan;

sanoat korxonasi investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmi korxonaning investitsiya xavfsizligi ehtimolligini baholashning alternativ modeli asosida uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘lgan talab va ularni maqbul joylashtirish imkoniyatlarini aniqlash taomilini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini ta’minlash ehtimolligini aniqlashda ehtimollik qiymatining “ishonchli” ( $96\% \leq p \leq 100\%$ ), “qoniqarli” ( $90\% \leq p \leq 95\%$ ), “kritik holat” ( $0\% \leq p < 90\%$ ) chegaralaridagi korxonalar sifatida baholash orqali alternativ variantlar asosida erishilgan natijalarni taqqoslab qaror qabul qilish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish asosida sanoat mahsulotlari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini raqamlashtirish va investitsiyalar samaradorligini baholashni amalga oshirish orqali korxonalarning kelgusi istiqbolli davrga mo‘ljallangan qarorlar qabul qilishiga doir tadbirlar ishlab chiqilgan;

Jizzax viloyatidagi sanoat korxonalari investitsiyalarining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili amalga oshirilib, investitsiyalar samaradorligini baholash imkoniyatining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarining istiqbolli yo‘nalishlari belgilangan hamda sanoat korxonalari uchun investitsiyalar samaradorligini aniqlash imkoniyatini beruvchi omilli ko‘rsatkichlar aniqlangan;

sanoat korxonalarida investitsiyalar aylanmasi va tarkibini hisobga olgan holda asosiy fondlarni yangilash va tiklash uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar hajmining o‘zgarish chegaralarini belgilashni inobatga oluvchi kapitalni baholash usullari ishlab chiqilgan;

ehtimollar nazariyasi va matematik statistika apparati yordamida iqtisodiy omillarning ta’sirini hisobga olgan holda sanoat korxonalari investitsiyaviy faoliyatining qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning konseptual modeli yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** amalga oshirilgan uslubiy yondashuv va usullarning tan olinganligi va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga oid ma’lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlari hamda sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishda foydalanishga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalar sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, investitsiyalar samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini

oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Tarmoq OTMlaridagi tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning investitsiya loyihalari va moliyaviy resurslarini joylashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va foya darajasini oshirish qobiliyatini, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy barqarorligini ta’minalash va uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlash jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma’lumotlardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsija etilgan “Korxona iqtisodiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 19-dekabrdagi 390-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoniyatiga yaratilgan;

sanoat korxonalarida investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmi korxonaning investitsiya xavfsizligi ehtimolligini baholashning alternativ modeli asosida uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘lgan talab va ularni maqbul joylashtirish imkoniyatlarini aniqlash taomilini qo‘llash orqali takomillashtirish yuzasidan bergen takliflari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-maydag‘i “2023–2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 24-avgustdag‘i 08/25-1-17758-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini obyektiv baholash tamoyillari, vositalari va usullari o‘zaro aloqadorlikda harakatlanish tizimining yaxlitligi ta’minalangan, ayrim vositalar va usullarning takomillashuviga, shu bilan birga milliy iqtisodiyotning ijobiy o‘zgarishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishiga erishilgan.

sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini ta’minalash ehtimolligini aniqlashda ehtimollik qiymati “ishonchli” ( $96\% \leq p \leq 100\%$ ), “qoniqarli” ( $90\% \leq p \leq 95\%$ ), “kritik holat” ( $0\% \leq p < 90\%$ ) chegaralaridagi korxonalar sifatida baholash orqali alternativ variantlar asosida erishilgan natijalarni taqqoslab qaror qabul qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-maydag‘i “2023–2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentyabrdagi 592-sonli “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash tog‘risida”gi Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 24-avgustdag‘i 08/25-1-17758-sonli ma’lumotnomasi)

Natijada joriy davr va iqstiqlorda sanoat korxonalarini investitsiyaviy faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini prognoz qilish uchun vosita sifatida xizmat qilgan.

O‘zbekistonda sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish asosida sanoat mahsulotlari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatida foydalanilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-maydag‘i PQ-146-sonli “2023-2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentabrdagi 592-son “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 24-avgustdag‘i 08/25-1-17758-sonli ma’lumotnomasi). Natijada sanoat mahsulotlari hajmi, investitsiyalar hajmi va ishchilar umumiyligi sonining o‘sish sur’ati kuzatilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Jizzax viloyatida sanoat mahsulotlari hajmi mos ravishda sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalar hajmi bilan ishchilarning umumiyligi soniga bevosita aloqador korrelyatsiyasining zinchligi maqbul variantda bo‘lishi borasida ijobjiy xulosaga keligan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan hamda 1 ta hammualliflik asosida chop etilgan scopus maqola ham mavjud.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan 1 ta scopus bazasidagi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertasiya hajmi 148 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning birinchi bobi “**Sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, bunda sanoat korxonalari investitsiyalarining mazmuni, funksiyalari, turlari, sanoat korxonalari investitsiyalarining samaradorligini baholash yo‘nalishlari, ularning tasnifi hamda uni baholash vositalari va usullari bayon qilingan.

Mamlakatda sanoat tarmog‘ining rivojlanishi iqtisodiy barqaqorlikni ta’minalash, aholi turmush farovonligi darajasining o‘sishi, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish bilan belgilanadi. Iqtisodiy muammolarning yechimini topishda sanoat tarmog‘i rivojlanishining asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Mamlakatning qay darajada sanoatlashganligi uning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, sanoatlashtirish jarayonlariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Sanoatda mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘sishi, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va investitsiya resurslarini kiritishni talab etadi.

Har qanday holatda ham investoring asosiy maqsadi investitsiya portfelini boshqarishda daromadlilik, likvidlilik va risklar o‘rtasidagi muvozanatlikni saqlab turishdan iborat.

Mamlakatimizda qachonki korxona operatsiyalarining samaradorligini ta’minalashga zarurat yuzaga kelsa, mutaxassislar mazkur ta’rifdan foydalanishlari mumkin. Agar investitsiyalar samaradorligini ta’minalashni amalga oshirish zarurati tug‘ilsa, u holda mazkur kategoriyanı takomillashtirish zarur. Birinchidan, korxonaning moliyaviy menejmenti doirasida investitsiyalarining samaradorligini ta’minalash pul oqimlari bilan ifodalanadi. Bunda, investitsiya natijalarini “kirim” yoki “chiqim” tushunchalari orqali tavsiflash kerak bo‘ladi. Ikkinchidan, samara yoki samaradorlikka berilgan ta’riflarda ijobjiy yoki salbiy jihatlar tavsiflanadi.

Baholash darajasiga qarab samaradorlikni ikkita turga ajratish mumkin. Samaradorlikning birinchi turi xususiy samaradorlik bo‘lib, u alohida kompaniya darajasida, ikkinchi turi jamoat samaradorligi bo‘lib, u jamiyat darajasida amalga oshiriladi. Xususiy samaradorlik ikkiga bo‘linadi. Birinchi turi, tijorat samaradorligi bo‘lib, u investitsiyalardan foyda olish maqsadiga qaratilgan samaradorlikdir. Ikkinchisi turi esa, notijorat samaradorlik bo‘lib, u investitsiyalardan foyda olishga mo‘ljallanmagan samaradorlikdir.

Ijtimoiy samaradorlikni davlat samaradorligi bilan mintaqaviy samaradorlik turlariga ajratish mumkin. Bunda, davlat samaradorligi butun milliy iqtisodiyot darajasida hisoblansa, mintaqaviy samaradorlik iqtisodiy subyektlar darajasida baholanadi. Yangi metodologiyani ishlab chiqish uchun to‘plangan tajribani umumlashtirish va investitsiyalar samaradorligini aniqlash, nazariy va uslubiy masalalar yechimini hal qilish kerak edi. Ulardan eng asosiylarini sanab o‘tamiz:

sotsialistik ishlab chiqarish sharoitida kapital qo'yilmalar va yangi texnologiyaning iqtisodiy samaradorligining mohiyati, mehnat unumdorligi, qiymat<sup>4</sup> qonuni va qiymat kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi;

qo'shimcha kapital qo'yilmalarni qiyoslash, joriy xarajatlarni tejash, loyihibiy yechimlar samaradorligini aniqlash usullari;

qoplashdagi me'yoriy muddatlarni belgilash koeffitsiyentlarini aniqlash usullari;

kapital qo'yilmalarning maqsadli yo'nalishlarini tanlashda vaqt omilining roli;

kapital qo'yilmalar muddatlarining samaradorlikka ta'sirini aniqlash usullari.

Amaliyotda har qanday korxona o'z faoliyati (investitsiyalar)ni turli manbalar hisobidan moliyalashtiradi. Korxona moliyaviy resurslardan foydalanganligi va o'zining iqtisodiy salohiyatini saqlab qolishi uchun to'lov sifatida foiz, dividend, mukofot va h.k. ko'rinishdagi asoslangan xarajatlarni to'lab berishni o'z zimmasiga oladi (1-jadval).

### **1-jadval**

#### **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tasnifi<sup>1</sup>**

<b>Investitsiyalarning tasniflash belgilari</b>	<b>Investitsiyalarning tasniflash guruhlari</b>
Investorning o'z mamalakatiga bog'liqligi	Xorijiy investitsiyalar Milliy investitsiyalar Aralash investitsiyalar
Investorning mulk shakliga bog'liqligi	Davlat investitsiyalari Nodavlat investitsiyalar Aralash investitsiyalar
Investitsiyalarning muddatiga bog'liqligi	Qisqa muddatli O'rta muddatli Uzoq muddatli
Investitsiyalarning moliyalash manbalariga bog'liqligi	O'z mablag'lari Jalb qilingan mablag'lar Qarz mablag'lari Aralash mablag'lar
Investitsiyalarning obyektiga bog'liqligi	Moliyaviy investitsiyalar Real investitsiyalar Intellektual investitsiyalar
Imkoniyatning investitsiya boshqaruv qarorlarini qabul qilishga bog'liqligi	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar Bilvosita investitsiyalar
Xarajatlarni qoplash manbalari bilan bog'liqligi	Investitsiyalarni qoplash manbalari – foyda, jalb qilingan va qarz mablag'lari hisobidan moliyalashgan kapital qo'yilmalar. Investitsiyalarni qoplash manbalari mahsulot tannarxiga kiritilgan joriy xarajatlar hisobidan moliyalashgan investitsiyalar hisoblanadi.


Investitsiyalar samaradorligiga doir masalaning hajmiga ko'ra hisoblash ishlarini amalga oshirishda ma'lumotlar to'plami yig'iladi va ular qayta ishlanadi. Xususan, tuzilgan maxsus matematik modellar asosida investitsiyalar samaradorligini muvofiqlashtirish uchun yaratilgan dasturlardan foydalananiladi.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmi 1-rasmda ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, u o'zaro aloqador ko'rsatkichlarning birgalikda harakatlanishi, bir-birini to'ldirishi, tizimning yaxlitligini ta'minlashi, samaradorlik ko'rsatkichlarining qay darajada ekanligini

<sup>4</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

aniqlash uchun xizmat qiladi. Rasmida ba’zi parametrlardan kirish parametrlari sifatida investitsiya jarayonlarini tahlil va prognoz qilish, ular bilan bog‘liq analitik masalalarini yechish uchun foydalanish mumkin.

Masalaning tizimli tarkibi, axborot va mantiqiy aloqadorlik qoidasiga asoslangan holda qo‘yilgan masalaning yechimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tizimning kengaytirilgan sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm). Bu yerda ko‘rsatkichlar bo‘yicha muvozanatga erishilgandan keyin qaror qabul qiluvchi shaxs muqobil variantlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni qiyosiy baholaydi. Agar muqobil variantlardan biri qaror qabul qiluvchi shaxsn ni iqtisodiy jihatdan qoniqtirmasa, u holda qaror qabul qiluvchi shaxs ma’lumotlar bazasiga yana takroran murojaat qiladi va modellarda axborotning yangi massivlaridan foydalanadi.



**1-rasm. Sanoat korxonasi investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmi<sup>5</sup>**

Ushbu jarayon, hisob-kitobning qoniqarli variantiga erishilgunga qadar takrorlanadi. Ma’lumotlar bazasining tarkibi iqtisodiy shart-sharoitlarni hamda har bir investitsyaning tarkibini hisobga oluvchi kerakli ma’lumotlarni aks ettirish imkoniyatini ko‘zda tutadi. Shu o‘rinda, aytish joizki, investitsiyalar samaradorligi tushunchasi, xususan, sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati samaradorligi tushunchasini nazariy jihatdan keltirish maqsadga muvofiq. Bizningcha, “sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning investitsiya loyihalari va moliyaviy resurslarini joylashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va foyda

<sup>5</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

darajasini ko‘tarish qobiliyatini korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlash orqali ifodalash ko‘p jihatdan maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini obyektiv baholash tamoyillari, vositalari va usullari o‘zaro aloqadorlikda harakatlanishi tizimning yaxlitligini ta’minlaydi, ayrim vositalar va usullarning takomillashuviga, shu bilan birga milliy iqtisodiyotning ijobiy o‘zgarishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Jizzax viloyati sanoat korxonalari investitsiya faoliyatining rivojlanish holati va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Jizzax viloyati korxonalarining investitsiyalari muhiti, uning jozibadorligi hamda sanoat korxonalaridagi investitsiyalar tarkibi, sanoat korxonalarida risklarni baholash va boshqarish amaliyoti tadqiq etilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda mavjud resurslarning turlari qanchalik cheklanaversa, investitsiyalar hajmi va ular yo‘nalishlarining ahamiyati ham tobora ortib boradi. Investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari va tarkibini asoslash mahsulotlarni ishlab chiqarish tarkibini belgilashning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilga qadar Jizzax viloyati xo‘jalik yurituvchi subyektlarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning hajmi past darajani tashkil etgan (2-jadval).

## 2-jadval

### **Moliyaviy manbalar bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi, mlrd.so‘m<sup>6</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2020-2024-yillarda o‘sish, marta
Markazlashgan investitsiyalar – jami	1062,6	782,1	1286,9	1851,7	2013,3	1,9
Respublika budjeti mablag‘lari	876,9	645,4	1125,8	1334,7	1375,2	1,6
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari	185,7	136,7	161,1	185,2	157,2	- 0,8
Markazlashmagan investitsiyalar - jami	11482,8	8451,5	9087,0	13119,1	21045,3	1,8
Korxona va tashkilotlar mablag‘lari	4404,7	3241,9	2568,6	1524,4	2683,7	- 0,6
Aholi mablag‘lari	2166,6	1594,6	895,5	1016,8	910,8	-0,4
Xorijiy investitsiyalar	3621,9	2665,7	4911,1	10247,3	17088,8	4,7
Bank kreditlari va qarz mablag‘lari	1289,7	949,2	711,8	330,6	362,0	-0,3
Investitsiyalar - jami	12545,4	9233,6	10373,9	17970,9	23058,6	1,8

2-jadval ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-2024-yillarda Jizzax viloyatining markazlashgan investitsiyalari – 1,9 martaga (951,1 mlrd. so‘mga), markazlashmagan investitsiyalar – 1,8 martaga (9562,5 mlrd. so‘mga) ko‘paygan. Respublikadan ajratilgan budget mablag‘lari – 1,6 martaga (498,3 mlrd. so‘mga) ortgan, ammo suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi – 0,8 martaga (28,5 mlrd. so‘mga) kamaygan. Markazlashmagan investitsiyalar manbaini korxona va tashkilotlarning mablag‘lari, aholi mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar, bank kreditlari va qarz mablag‘lari tashkil etadi. 2020 – 2024-yillarda korxona va tashkilotlar mablag‘lari 0,6 martaga (1 721,0 mlrd.so‘mga), aholi mablag‘lari –

<sup>6</sup> Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

0,4 martaga (1 255,8 mlrd.so‘mga) kamaygan, xorijiy investitsiyalar – 4,7 martaga (13 466,9 mlrd.so‘mga) ortgan, ammo bank kreditlari va qarz mablag‘lari – 0,3 martaga (927,7 mlrd. so‘mga) kamaygan. Ushbu mablag‘lar hududda mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ishlar bajarish maqsadida yo‘naltirilgan.

Investitsiyalarning samaradorligini baholash quyidagi masalalarning yechimini topish asosida amalga oshiriladi:

1. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning alohida yo‘nalishlari bo‘yicha yashirin imkoniyatlarni aniqlash.

2. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibining muqobil variantlarini ishlab chiqish.

3. Asosiy kapitalning investitsiyalarga bo‘lgan talabini ishlab chiqish va baholash.

4. Investitsiyalar natijadorligi bilan ularning darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash.

5. Investitsiyalarni maqsadli yo‘nalishlarga taqsimlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab topish.

6. Iqtisodiy–matematik instrumentlar asosida investitsiya resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qilish uchun real tahlillar asosini shakllantirish.

7. Investitsiyalar tarkibini shakllantirish va optimal taqsimlash bo‘yicha proqnozli hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun zaruriy dastaklar yaratish.

8. Investitsiyalar tarkibini shakllantirish va optimal taqsimlash zaxiralarining samarali variantlarini aniqlash va taklif qilish.

### 3-jadval

#### **Jizzax viloyati shahar va tumanlarida sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m<sup>7</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2020-2024-yillarda o‘sish, marta
Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	4586,1	5823,8	8731,8	11402,0	19197,3	4,2
Jizzax shahri	2102,8	2233,7	2774,2	3862,0	6502,5	3,1
Arnasoy tumani	146,5	208,4	238,0	245,4	413,3	2,8
Baxmal tumani	71,3	86,2	96,6	88,0	148,2	2,1
G‘allaorol tumani	137,4	149,9	1231,9	2353,5	3962,5	28,8
Sharof Rashidov tumani	273,4	356,5	414,6	592,6	997,7	3,6
Do‘stlik tumani	531,0	751,7	823,6	861,7	1450,8	2,7
Zomin tumani	299,6	318,3	345,9	653,3	1099,9	3,7
Zarbdor tumani	207,9	201,6	362,3	325,8	548,5	2,6
Zafarobod tumani	158,9	479,7	1338,1	1102,0	1855,4	11,7
Mirzacho‘l tumani	69,0	164,8	181,0	147,1	247,7	3,6
Paxtakor tumani	379,5	487,2	534,9	604,5	1017,8	2,7
Forish tumani	155,2	292,8	348,6	526,4	886,3	5,7
Yangiobod tumani	53,6	93,2	42,1	39,6	66,7	1,2

<sup>7</sup> Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar natijasida ko‘rishimiz mumkinki, viloyatning hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2020-2024-yillarda G‘allaorol tumanida (28,8 marta), Zafarobod tumanida (11,7 marta), Paxtakor tumanida (2,7 marta), Forish tumanida (5,7 marta), Zomin tumanida (3,7 marta), Sharof Rashidov tumanida (3,6 marta) o‘sish tendensiyasiga ega. Eng yuqori o‘sish sur’ati G‘allaorol tumani hissasiga to‘g‘ri keladi (3-jadval).

Sanoat korxonalarini investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ularning debtorlik va kreditorlik qarzlari bilan o‘zaro bog‘liq. Debtorlik va kreditorlik qarzlari korxona investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sanoat korxonalarini investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ularning debtorlik va kreditorlik qarzlari bilan o‘zaro bog‘liq. Debtorlik va kreditorlik qarzlari korxona investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘sishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida sanoat korxonalarini investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlili ham amalga oshirildi (4-jadval).

#### **4-jadval**

#### **Sanoat korxonalarini investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi, mlrd.so‘m<sup>8</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2020-2024-yillarda o‘sish, marta
Investitsiyalar hajmi – jami	4059,4	7173,4	5392,4	5643,5	10891,9	2,7
Sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilishdan kelib tushgan jami tushum	5586,1	7823,8	8731,8	11402,0	19197,3	3,4
Sanoat tarmog‘i foydasi	64,8	56,9	460,3	433,6	742,2	11,5
Sanoat mahsuloti birligini ishlab chiqarishga sarflangan investitsiyalar	0,73	0,73	0,62	0,49	0,58	- 0,8
Sanoat mahsuloti birligiga sarf qilingan investitsiyalardan olingan daromad	1,38	1,09	1,62	2,02	1,76	1,3
Rentabellik darajasi, %	1,60	0,79	8,54	7,68	6,81	4,3

4-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2024-yillarda Jizzax viloyati sanoat korxonalarining mahsulotlarini realizatsiya qilishdan kelib tushgan tushum 5586,1 mlrd. so‘mdan 19197,3 mlrd. so‘mga, sanoat foydasi 64,8 mlrd. so‘mdan 742,1 mlrd. so‘mga ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Sanoat mahsulotlari birligini ishlab chiqarishda sarf qilingan investitsiyalar mos ravishda 0,73; 0,62; 0,49; 0,68 miqdorni, sarf qilingan investitsiyalar birligidan olingan daromad esa mos ravishda 1,38; 1,09; 1,62, 2,02; 1,76 miqdorni tashkil etgan. Bu davr ichida sanoat korxonalarining rentabellik darajasi esa 1,60; 0,79; 8,54; 7,68; 6,81 foizni tashkil etgan. Ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, investitsiyalardan samarali foydalanishdan olingan

<sup>8</sup> Jizzax viloyati statistika boshhqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

foyda qariyb 11,5 barobarga, rentabellik darajasi 1,6 foizdan 6,81 foizgacha yoki 4,3 martaga ko‘paygan.

So‘nggi yillarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida Jizzax viloyati sanoat korxonalarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi keskin ko‘paygan. Kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi kapitalni tiklash va to‘ldirishga sarflangan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar asosan, tog‘-kon sanoatini, ishlab chiqarish sanoatini, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalashni, suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi va utilizatsiya qilishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Biroq, bu sohaga yo‘naltirilayotgan joriy sarmoyalarning hajmi yetarli darajada emas. Har yili sanoat korxonalarining ishlab chiqarishdan chiqib borayotgan asosiy fondlarni yangilashga ehtiyoj bor. Sanoat korxonalarida asosiy fondlarning faol qismi birinchi navbatda yangilanishi zarur. Ularning solishtirma og‘irligi asosiy fondlardan foydalanish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari**” deb nomlanib, bunda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili, sanoat korxonalarining investitsiya resurslari aylanmasi va tarkibini optimallash uslublarini tadbiq etish asosida sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini baholashning konseptual modeli taklif etilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda investitsiya siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki korxonalarining ishlab chiqarish moddiy-texnik ta’mnoti, ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshliklar ularning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Sanoat korxonalari investitsiya siyosatining strategik maqsadi va yo‘nalishlarini belgilovchi omillardan biri – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda asosiy vositalarni yangilash, shuningdek, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiya resurslarining aylanmasi va tarkibini optimallashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muammoni hal etish esa zamonaviy uslubiy yondashuvlar asosida yechim topishni talab etmoqda.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslab berish uchun modellarni boshqarishda investitsiyalarning tarkibi, investitsiyalar tarkibining unumdonlik dinamikasi, tarkibiy guruhrar bo‘yicha investitsiyalar hajmini mustahkamlashning maksimal yoki minimal darajadagi chegarasi, investitsiyalarning birlik o‘lchovidagi narx dinamikasi, investitsiyalarning birlik o‘lchovidagi tannarx dinamikasi, shakllangan manbalar guruhi bo‘yicha hisobdan chiqarilgan va aylanma natijasida yangidan yaratilgan investitsiyalar ulushi, jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalarni xarakterlovchi ma’lumotlar, korxonadagi mavjud investitsiyalar hajmi, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat xarajatlari me’yori va boshqa parametrlardan foydalaniladi.

Shunga ko‘ra, 5-jadvalda “Do‘slikdon mahsulotlari” AJ investitsiyalari aylanmasi va tarkibini hisoblashning modellari hamda algoritmlarining parametrlarini tavsiflovchi ma’lumotlar ko‘rsatilgan. Ushbu jadvaldagি ma’lumotlarga ko‘ra, korxonaning yil boshidagi investitsiyalari hajmi 193357805 ming so‘mni, shundan 172620180 ming so‘mi yoki 89,28% qisqa muddatli investitsiyalar, 20737625 ming so‘mi yoki 10,72% uzoq muddatli investitsiyalarni tashkil etadi.

**5-jadval**

**“Do‘stlikdon mahsulotlari” AJ ning investitsiyalari aylanmasi  
va tarkibining hisob-kitobi<sup>9</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Qisqa muddatli		Uzoq muddatli		Jami
	ming so‘m	%	ming so‘m	%	
<b>Yil boshiga qoldiq</b>	172620180	<u>45,41</u> 89,28	20737625	<u>52,10</u> 10,72	<u>193357805</u> 46,05
<b>Kirim:</b>					
o‘z mablag‘lar manbai	2955948	<u>0,78</u> 52,40	2685174	<u>6,75</u> 47,60	<u>5641122</u> 1,34
jalb qilingan mablag‘lar	271890	<u>0,07</u> 47,70	298110	<u>0,75</u> 52,30	<u>570000</u> 0,14
qarz mablag‘lar	204231355	<u>53,72</u> 92,70	16082944	<u>40,39</u> 7,30	<u>220314299</u> 52,46
boshqa kirim qilingan mablag‘lar	16656	<u>0,01</u> 91,90	1468	<u>0,01</u> 8,10	<u>18124</u> 0,01
<b>Jami</b>	380096029	<u>100</u> 90,52	39805321	<u>100</u> 9,48	<u>419901350</u> 100
<b>Chiqim:</b>					
aylanma kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lar	151394237	<u>87,62</u> 88,80	19094769	<u>71,07</u> 11,20	<u>170489006</u> 85,39
asosiy kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lar	421941	<u>0,24</u> 6,70	5875691	<u>21,87</u> 93,30	<u>6297632</u> 3,15
boshqa chiqim qilingan mablag‘lar	20970689	<u>12,14</u> 91,70	1898110	<u>7,06</u> 8,30	<u>22868799</u> 11,45
<b>Jami</b>	172786867	<u>100</u> 86,54	26868570	<u>100</u> 13,46	<u>199655437</u> 100
<b>Yil oxiriga qoldiq</b>	207309162	<u>100</u> 87,18	12936751	<u>100</u> 12,82	<u>220245913</u> 100
<b>O‘rtacha yillik mablag‘lar</b>	189964671	<u>91,63</u> 91,86	16837188	<u>130,15</u> 8,14	<u>206801859</u> 100

Xuddi shu kabi hisob-kitoblarni o‘z mablag‘lari manbai hamda kirim qilingan boshqa mablag‘larda ham kuzatish mumkin. Investitsiyalarning kirim qismida ko‘rinadiki, ularning aylanmasi bo‘yicha barcha guruhlarda qisqa muddatli investitsiyalar hajmi yirik miqdorni tashki qiladi. Investitsiyalarning chiqim qismida esa aksincha, ularning kamayish holatini kuzatish mumkin. Yil oxirida investitsiyalar mos ravishda 220245913 ming so‘mni, shundan qisqa muddatli investitsiyalar 207309162 ming so‘mni yoki 87,18 %ni, uzoq muddatli investitsiyalar 12936751 ming so‘mni yoki 12,82 %ni tashkil etadi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar tarkibi va ular manbalarining o‘zgarish dinamikasi korxonaning yil boshi va oxiridagi investitsiyalar o‘rtasidagi farqni o‘rtacha yillik investitsiyalar kabi aniqlaydi. Jadvalda korxonaning o‘rtacha yillik investitsiyalari yil oxiridagi investitsiyalar hajmiga nisbatan 4,68 %ga ko‘p bo‘lsa, uzoq muddatli investitsiyalar 4,68 %ga kam ekanligini kuzatish mumkin.

<sup>9</sup> “Do‘stlikdon mahsulotlari” AJning moliyaviy va statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

“Do’stlikdon mahsulotlari” AJ mavjud imkoniyatdan foydalangan holda investitsiyalar hajmini ko‘paytirmoqda (6-jadval).

#### 6-jadval

#### “Do’stlikdon mahsulotlari” AJ korxonasida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligining muqobil variantlari<sup>10</sup>

Ko‘rsatkichlar	Haqiqatda, ming so‘m	Modellar bo‘yicha hisob-kitob variantlari, ming so‘m			Haqiqatga nisbatan hisob-kitob variantlari, %		
		1	2	3	1	2	3
Sof foya	3036667	3155097	3240124	3264417	103,9	106,7	107,5
shundan: un mahsuloti	1640227	1699275	1717318	1735360	103,6	104,7	105,8
omuxta yem	557638	578828	576040	574925	103,8	103,3	103,1
sara urug‘lar	838802	863127	861450	859772	102,9	102,7	102,5
Sof foya bo‘yicha rentabellik, %	2,52	2,62	2,69	2,71	103,9	106,7	107,5

Investitsiyalar miqdorining ko‘payishiga ishlab chiqarish jarayonini faollashtirish, investitsiyalarning tarkibiy guruhini yaxshilash, investitsiyalar hajmini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘paytiriladi va iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

6-jadvalda keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning hisob-kitob natijalari 2024-yildagi haqiqiy ma’lumotlar bilan qiyosiy baholangan. Tavsiya etilgan uslubiy yondashuvlar, tuzilgan modellar va algoritmlar yordamida investitsiyalar samaradorligining oshishini kuzatish mumkin. Korxonada investitsiyalarning tarkibiy manbalari va salohiyatidan aql-idrokka asoslangan holda foydalanish, zaxiralarni izlab topish iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

#### 7-jadval

#### Sanoat korxonlari investitsiya xavfsizligi ehtimolligining qiymatlarini baholash<sup>11</sup>

Nº	Amallar ketma-ketligining asosiy mazmuni
1	$R$ tasodifiy miqdorning aproksimatsiyasi uchun $y_R=a+bt$ tenglamaning $a$ va $b$ koeffisiyentlari aniqlanadi
2	$R$ tasodifiy miqdor bo‘yicha o‘rtacha kvadratik chetlanish ( $\sigma$ ) qiymati aniqlanadi
3	Ko‘p omilli korrelyatsiya koeffisiyenti ( $r_m$ ) aniqlanadi
4	Yaqin joriy muddatda $R$ tasodifiy miqdorning prognoz qiymati ( $R_{pr}$ ) aniqlanadi
5	O‘rtacha kvadaratik chetlanishning prognoz qiymati ( $\sigma_{pr}$ ) aniqlanadi
6	Laplasning ehtimollik integrali bo‘yicha normal taqsimot funksiyasi argumentining qiymati ( $s$ ) aniqlanadi
7	Yaqin joriy muddatda sanoat korxonasining iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligi qiymatlari ( $p$ ) aniqlanadi

So‘ngi yillarda mamlakatimiz hududida joylashgan ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichki va tashqi muhitlarning salbiy ta’sirida muayyan turdagи tahdidlarga duch kelmoqda. Ular amaliyotda ichki va tashqi ta’sirlarga nisbatan ham zaif, ham sezgir bo‘lib qolmoqda. Bu holat, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning makro, mezo va

<sup>10</sup> “Do’stlikdon mahsulotlari” AJning moliyaviy va statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>11</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

mikro darajada yuzaga keladigan davomli tahdidlarning oldini olish mexanizmini ishlab chiqishga tayyor turishini taqozo etadi.

Shu maqsadda, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika manbalari yordamida tasodifyi (iqtisodiy) omillarning ta'sirini hisobga olgan holda sanoat korxonalarini investitsiyaviy faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ichki iqtisodiy tahidilar ta'siri bilan bevosita bog'liq. Uning iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligini tartibga solish uchun quyidagi ketma-ketlikdagi algoritmlardan foydalilanadi:

$R$  tasodifyi miqdorning aproksimatsiyasi uchun  $y_R = a + bt$  tenglamaning  $a$  va  $b$  koefisiyentlari aniqlanadi;

$R$  tasodifyi miqdor bo'yicha o'rtacha kvadratik chetlanish ( $\sigma$ ) qiymati aniqlanadi.

Ko'p omilli korrelyatsiya koefisiyenti ( $r_m$ ) aniqlanadi;

Kelgusi o'n ikki oy davomida  $R$  tasodifyi miqdorning prognoz qiymati ( $R_{np}$ ) aniqlanadi;

O'rtacha kvadaristik chetlanishning prognoz qiymati ( $\sigma_{np}$ ) aniqlanadi;

Laplasing ehtimollik integrali bo'yicha normal taqsimot funksiyasi argumentining qiymati ( $s$ ) aniqlanadi;

